


**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**60411700- Logistika (agrologistika) bakalavriat ta'lif yo'naliishing
malaka talablari**



Toshkent

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining
2023 yil «21 » august dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilar takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60411700- Logistika (agrologistika) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi ..	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	60411700-Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.3.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60411700- Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	60411700- Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60411700- Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	60411700- Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60411700- Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60411700- Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	60411700- Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	60411700- Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i	10

1. 60411700- Logistika (agrologistika) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60411700 - Logistika (agrologistika) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash oliv ta’limning o‘quv reja va fan dasturi asosida kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60411700 - Logistika (agrologistika) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60411700 - Logistika (agrologistika) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Oliy ta’lim muassasasi mazkur bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo‘lganda malaka talabi asosida o‘quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega hisoblanadi.

1.1.3. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalarini;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60411700- Logistika (agrologistika) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60411700- Logistika (agrologistika) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

60411700 - Logistika (agrologistika) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – fan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, u erkin iqtisodiy zonalarda logistik faoliyatni tashkil etish, boshqarish, rejalashtirish, nazorat qilish, marketing kompleksi, erkin iqtisodiy industrial zonalar, bozorni segmentlash va pozitsiyalashtirish, Logistika (agrologistika) tizimida tadqiqotlari o‘tkazish, korxonalarning marketing strategiyasini ishlab chiqish, tovar, narx, sotish, siljitimish, yetkazib berish zanjirini tashkil etish, yangi tovarlarni bozorga kiritish, korxonalarni tashqi bozorlarga chiqish usullari, turli mulkchilik shaklidagi korxona va erkin zonalarda Logistika (agrologistika) faoliyatini rivojlantirish, istiqbolini belgilash majmuasiga yo‘naltirilgan usul va vositalar majmuini qamrab oladi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamонавији yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari va soha mutaxassislarining taklif va talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘srimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

1.2.2. 60411700- Logistika (agrologistika) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- logistik markazlar, logistik faoliyatni olib boruvchi barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi korxona va firmalar;
- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;
- iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tafbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari;
- firma va kompaniyalar, shuningdek, turli mulk shaklidagi korxonalarni boshqarish, ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida iqtisodiy faoliyatni ta'minlash;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari.

1.2.3. 60411700- Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahsilii faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyat;
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60411700- Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60411700 – Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- rejalashtirish ishlarini tashkil etish;
- xo'jalik yurituvchi subyektini xo'jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalarini (dasturlarini) ishlab chiqish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini o'rghanish;
- agrologistika majmualarida ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilish;
- agrologistika majmualarini texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish;
- mehnatni muhofaza qilish me'yor va qoidalariga amal qilish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tafbiq qilish;
- agrologistika majmualari va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yechimlarini amaliyatga tafbiq etish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslardan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsiya loyihamalarini ishlab chiqishda ishtirot etish.
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo'linmalarini tashkil etish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda yangi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalgaga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo'llash;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatcion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruva foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish va boshqaruva qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- agrologistika majmualarining ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
- loyihamalar samaradorligini baholash;
- agrologistika markazlarida hamda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ko'rsatkichlari o'zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyotning dolzarb yo'nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalgaga oshirishda qatnashish;
- agrologistika majmualari va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalgaga oshirishda qatnashish;
- agrologistika markazlarida va korxonalarga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rGANISH;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalardagi muammolar mavzulari bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalgaga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalgaga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60411700- Logistika (agrologistika) ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- agrologistika majmularida ishlab chiqarishni tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda korxona (tashkilot)ni rivojlantirish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ijodiy fikrlash, muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- agrologistika markazlarida korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- agrologistika markazlarida strategik va operatsion rejalashtirish, ishni samarali tashkil etish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- agrologistika markazlarida iqtisodiy o'sish, strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- agrologistika markazlarida aylanma mablag'larni boshqarish, dividend siyosati va kapital tuzilmasini shakllantirishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo'llay bilish;
- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- agrologistika markazlarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatiga ta'lqli qarorlarni qabul qilishda, ularni aniq vazifalarga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- buxgalteriya siyosati va tashkilotning moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda moliyaviy buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari va standartlarini, boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida xarajatlarni boshqarish va qarorlarni qabul qilish o'quviga ega bo'lish;
- agrologistika markazlarida biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;
- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'naliishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3.1. Kvalifikatsiya: agrologistik, tovarshunos, iqtisodechi

2.3.2. 60411700 - Logistika (agrologistika) ta'lif yo'nalishi uchun uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlari va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lif shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5280	176
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	600	20
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. 60411700 - Logistika (agrologistika) bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5280	176	
1.01	O'EYTB1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	DINB1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	FALB1204	Falsafa	120	4	2
1.04	XTB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O'T O'SQB1104	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	1
1.06	JISMSB1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.07	AMALMB1112	Amaliy matematika 1,2	360	12	1,2
1.08	IQAKTTB1106	Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	180	6	1
1.09	IQNZB1106	Iqtisodiyot nazariyasi	180	6	1
1.10	IQTTB1204	Iqtisodiy ta'lifotlar tarixi	120	4	2
1.11	LOGKB1204	Logistikaga kirish	120	4	2
1.12	INIB1306	Innovatsion infratuzulma	180	6	3
1.13	MIKRB1306	Mikroiqtisodiyot	180	6	3
1.14	MAKIQB1306	Makroiqtisodiyot	180	6	3
1.15	MARKB1306	Marketing	180	6	3
1.16	BOZIB1306	Bozor infratuzilmasi	360	12	
1.17	YAIB1404	Yashil iqtisodiyot	120	4	4
1.18	STATB1404	Statistika	120	4	4
1.19	HBGMB1512	Haridlarni boshqarish va global manbalar	360	12	4,5
1.20	LOGTZMB1506	Logistika va ta'minot zanjiri menejmentiga kirish	180	6	5
1.21	TRIQTB1606	Transport iqtisodiyoti	360	12	5,6
1.22	MENB1606	Menejment	180	6	6
1.23	TIJSLB1606	Tijorat va sirves logistikasi	180	6	6
1.24	QXICHIQB1710	Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish iqtisodiyoti 1,2	300	10	7,8
1.25	ASOOXB1708	Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi 1,2	240	8	7-8
1.26	BOJIB1806	Bojxona ishi	180	6	8
1.27	TUKB1806	Tadqiqot usullari va ko'nikmalari	180	6	8
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	4,5,6,7,8
		Jami	6480	216	
		Malakaviy amaliyot	600	20	4,6,7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		Jami	720	24	
		HAMMASI	7200	240	



**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molechilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor S. Islamov

M.O'.

2023 yil « 10 » 07



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor Sh. Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.



Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida
strategik va tadqiqotlar xalqaro markazi

Direktor A.Shukurov

2023 yil « 18 » 07

M.O'.



O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari
uyushmasi

Rais

M.Rahmatov

2023 yil « 20 » 07

M.O'



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor

K. Sharipov

2023 yil « 20 » 07

M.O'



TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

**60411700-Logistika (agrologistika) ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari va o'quv
rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliv ta'lif muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

"10" 07 ~ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorekitori, prof. S.Y.Islamov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori prof. K.A.Sharipov, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik va tadqiqotlar xalqaro markazi direktori A.Shukurov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lif yo'naliishing malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60411700-Logistika (agrologistika) ta'lif yo'naliishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi "Davlat oliv ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.


Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
rektori, professor**




 K.Sharipov

**Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida
strategik va tadqiqotlar xalqaro markazi
direktori**

 A.Shukurov

**Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorekitori, professor**



 S.Islamov